



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 92 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
<i>Elmanov Abbos Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati.....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari.....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шайра Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari.....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati.....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
<i>Мукинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILIDA TA'LIM BERUVCHI PROFESSOR- O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI BAHOLASH: XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI

Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, tayanch doktorant

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi (EMI - English as a Medium of Instruction) professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash tizimlarining xalqaro tajribalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida QS World University Rankings bo'yicha yetakchi o'rinlarni egallagan beshta universitet - Helsinki universiteti (Finlyandiya), Barselona avtonom universiteti (Ispaniya), Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya), Singapur milliy universiteti va Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya) tajribalari o'rganilgan. Xalqaro universitetlarda qo'llaniladigan EMI o'qituvchilarini baholash mezonlari, sertifikatlash jarayonlari va uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturlari tahlil etilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida EMI amaliyotining hozirgi holati, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbolari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga asoslanib, O'zbekiston oliy ta'limi uchun EMI o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash va rivojlantirishning integratsiyalashgan modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: EMI, ingliz tilida ta'lim berish, kasbiy kompetentlik, baholash tizimi, oliy ta'lim, xalqaro tajriba, qiyosiy tahlil, O'zbekiston, professor-o'qituvchi, sertifikatlash.

Abstract: This article presents a comparative analysis of international practices in assessing the professional competency of English as a Medium of Instruction (EMI) lecturers in higher education institutions. The study examines the experiences of five leading universities according to the QS World University Rankings: the University of Helsinki (Finland), the Universitat Autònoma de Barcelona (Spain), the Delft University of Technology (the Netherlands), the National University of Singapore, and Seoul National University (South Korea). The criteria for evaluating EMI instructors, certification processes, and continuous professional development programs employed by these universities are analyzed. The current state of EMI practice in the higher education system of Uzbekistan, existing challenges, and development prospects are discussed. Based on the research findings, an integrated model for assessing and developing the professional competency of EMI lecturers adapted to the Uzbekistan higher education context is proposed.

Key words: EMI, English as a Medium of Instruction, professional competency, assessment system, higher education, international experience, comparative analysis, Uzbekistan, academic staff, certification.

Аннотация: В данной статье проведён сравнительный анализ международного опыта систем оценки профессиональной компетентности преподавателей, осуществляющих обучение на английском языке (EMI) в учреждениях высшего образования. Исследован опыт пяти ведущих университетов по рейтингу QS: Хельсинкского университета (Финляндия), Автономного университета Барселоны (Испания), Делфтского технологического университета (Нидерланды), Национального университета Сингапура и Сеульского национального университета (Южная Корея). Проанализированы критерии оценки, процессы сертификации и программы непрерывного профессионального развития EMI-преподавателей. Освещено текущее состояние практики EMI в системе высшего образования Узбекистана. На основе результатов исследования предложена интегрированная модель оценки и развития профессиональной компетентности EMI-преподавателей для системы высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: EMI, обучение на английском языке, профессиональная компетентность, система оценки, высшее образование, международный опыт, сравнительный анализ, Узбекистан, профессорско-преподавательский состав, сертификация.

KIRISH

Globalashuv jarayonlari oliy ta'lim tizimiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda va universitetlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Shu munosabat bilan, dunyoning ko'plab mamlakatlarida ingliz tilida ta'lim berish (EMI - English as a Medium of Instruction) amaliyoti jadal rivojlanmoqda. EMI - bu ingliz tili ona tili bo'lmagan muhitda fan predmetlarini ingliz tilida o'qitish amaliyotini anglatadi ^[1].

O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'limni xalqarolashtirish jarayoni faol davom etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan oliy ta'limda chet tillarini o'qitish tizimi tubdan isloh qilish belgilangan ^[2].

Bugungi kunda mamlakatning yetakchi universitetlarida ingliz tilida ta'lim berish dasturlari joriy etilmoqda. Biroq, EMI dasturlarining samaradorligi birinchi navbatda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligi darajasiga bog'liq.

Kasbiy kompetentlik tushunchasi pedagogika fanida keng o'rganilgan bo'lib, u turli tadqiqotchillar tomonidan turlicha talqin qilingan. Richards kasbiy kompetentlikni tilni o'qitish kontekstida bilim, ko'nikma va qadriyatlarining yaxlit tizimi sifatida ta'riflagan ^[3].

Freeman esa o'qituvchining kasbiy rivojlanishi doimiy, reflektiv jarayon ekanligini ta'kidlagan ^[4].

EMI kontekstida esa kasbiy kompetentlik an'anaviy pedagogik kompetentlikdan farq qiladi, chunki u predmet bilimi, til ko'nikmasi va o'ziga xos pedagogik strategiyalarni birlashtiradi ^[5].

Tadqiqotning maqsadi - xalqaro universitetlarning EMI o'qituvchilarini baholash tajribalarini qiyosiy tahlil qilish va O'zbekiston oliy ta'limi uchun moslashtirilgan baholash modelini ishlab chiqish. Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: xalqaro universitetlarda EMI o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholash tizimlarini o'rganish; O'zbekistondagi mavjud holatni tahlil qilish; va integratsiyalashgan baholash modelini taklif etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

EMI sohasidagi tadqiqotlar so'nggi o'n yilda sezilarli darajada ko'paygan. Dearden EMI ni dunyodagi eng tez rivojlanayotgan ta'lim tendentsiyalaridan biri sifatida ta'riflagan va bu jarayonning sifatini ta'minlash muammolarini ko'rsatib bergan ^[1].

Macaro EMI dasturlarining samaradorligini o'rganib, o'qituvchilarning til tayyorgarligi va pedagogik ko'nikmalarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini aniqlagan ^[6].

Kasbiy kompetentlik nazariyasi bo'yicha Richards o'qituvchi kompetentligini ikki asosiy komponentga bo'lgan: predmet bilimi (content knowledge) va pedagogik mahorat (pedagogical expertise) ^[3].

Ball, Thames va Phelps bu modelni yanada rivojlantirib, o'qitish uchun zarur bilimlarning batafsil taksonomiyasini yaratganlar ^[7].

EMI kontekstida esa bu modelga til kompetentsiyasi (linguistic competence) va madaniyatlararo muloqot ko'nikmasi (intercultural communicative competence) qo'shiladi ^[5].

Mahalliy miqyosda Jalolov chet tillarini o'qitish metodikasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan ^[8], Irisqulov ingliz tili stilistikasi masalalarini o'rgangan ^[9], Hoshimov esa ingliz tilini o'qitish metodikasi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan ^[10].

Biroq, EMI o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholashning O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan modeli hali ishlab chiqilmagan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil (comparative analysis) asosiy metod sifatida qo'llanilgan.

Tadqiqot ob'ektlari sifatida QS World University Rankings ro'yxatidagi beshta universitet tanlangan:

- University of Helsinki (QS ~115),
- Universitat Autònoma de Barcelona (QS ~178),
- Delft University of Technology (QS ~47),
- National University of Singapore (QS ~8) va
- Seoul National University (QS ~29).

Universitetlar tanlashda geografik xilma-xillik, EMI tajribasining etukligi va ma'lumotlarning ochiq mavjudligi mezonlari hisobga olingan.

Ma'lumotlarni yig'ish usullari: universitetlarning rasmiy hujjatlari, siyosat bayonnomalari, o'quv dasturlari va kasbiy rivojlantirish dasturlari tahlil qilingan.

Bundan tashqari, EMI sohasidagi ilmiy maqolalar, monografiyalar va xalqaro tashkilotlar hisobotlari o'rganilgan. O'zbekiston kontekstini tahlil qilish uchun me'yoriy-huquqiy hujjatlar, OTMLar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar va mavjud tadqiqot natijalari ko'rib chiqilgan.

Tahlil doirasida quyidagi mezonlar bo'yicha qiyoslash amalga oshirilgan:

- EMI o'qituvchilarga qo'yiladigan til talablari;
- pedagogik kompetentlikni baholash usullari;
- sertifikatli jarayonlari;
- uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturlari;
- baholash natijalarining qaror qabul qilishga ta'siri.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro universitetlar tajribasining qiyosiy tahlili

Tadqiqot doirasida o'rganilgan beshta universitetning EMI o'qituvchilarini baholash tizimlari quyidagi asosiy xususiyatlarga ega ekanligi aniqlangan.

Helsinki universiteti (Finlyandiya). Helsinki universiteti CEFR (Common European Framework of Reference) ga moslashtirilgan o'qitish kompetentligi tizimini joriy qilgan. Bu tizimda o'qituvchining predmet bilimi, til ko'nikmasi va pedagogik mahorati alohida-alohida, lekin integratsiyalashgan holda baholanadi. Har yili hamkasblar kuzatuv (peer observation) va talabalar fikr-mulohazasi (student feedback) asosida individual rivojlanish rejasi tuziladi. O'qituvchilar C1 darajasidan past bo'lmagan ingliz tili bilimiga ega bo'lishi talab etiladi ^[11].

Barselona avtonom universiteti (Ispaniya). Bu universitet CLIL (Content and Language Integrated Learning) asosidagi EMI o'qituvchilarni rivojlantirish dasturini qo'llaydi. O'qituvchilar to'rt bosqichli sertifikatli jarayonidan o'tadi: til auditi, metodologik trening, amaliy dars berish va reflektiv portfolio tayyorlash. Bu yondashuv til va predmetni birgalikda o'rgatish tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'qituvchilarga chuqur metodologik tayyorgarlik beradi ^[12].

Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya). TU Delft o'zining University Teaching Qualification (UTQ) tizimiga EMI modulini qo'shgan. O'qituvchilar IELTS/TOEFL natijalaridan tashqari, "academic English for teaching" bo'yicha maxsus test topshiradi. Yillik microteaching sessiyalarida o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalari baholanadi. Bu tizim o'qituvchining akademik ingliz tilida o'qitish qobiliyatini alohida e'tibor bilan tekshiradi ^[13].

Singapur milliy universiteti. NUS "Teaching Academy" orqali barcha EMI o'qituvchilarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish dasturiga jalb qiladi. 360 darajali baholash tizimi (talabalar, hamkasblar, rahbariyat va o'z-o'zini baholash) qo'llaniladi. Bu ko'p qirrali yondashuv o'qituvchining faoliyatini turli tomonlardan baholash imkonini beradi ^[14].

Seul milliy universiteti (Janubiy Koreya). SNU EMI dasturini bosqichma-bosqich joriy qilish strategiyasini qo'llagan: dastlab magistratura, so'ngra bakalavriat dasturlariga kengaytirilgan. O'qituvchilar uchun "English Teaching Certificate" majburiy qilingan va yiliga ikki marta sinf kuzatuv (classroom observation) o'tkaziladi. Bu bosqichma-bosqich yondashuv tizimning barqarorligini ta'minlaydi ^[15].

1-jadval: Xalqaro universitetlarda EMI o'qituvchilarini baholash tizimlarining qiyosiy tahlili

Mezon	Helsinki	Barselona	TU Delft	NUS	SNU
Til talabi	CEFR C1+	CLIL audit	IELTS/TOEFL + maxsus test	Institutsional mezon	English Teaching Certificate
Baholash usuli	Peer observation + Student feedback	4 bosqichli sertifikatatsiya	UTQ + EMI modul	360° baholash	Sinf kuzatuv (yiliga 2 marta)
Kasbiy rivojlantirish	Individual reja	Reflektiv portfolio	Microteaching	Teaching Academy	Bosqichma-bosqich joriy etish
Asosiy xususiyat	Integratsiyalashgan baholash	Til + predmet birlik	Akademik til alohida tekshiruv	Ko'p qirrali yondashuv	Bosqichma-bosqich kengaytirish

O'zbekiston oliy ta'limida EMI amaliyotining hozirgi holati

O'zbekistonda EMI amaliyoti so'nggi yillarda sezilarli rivojlanishni boshdan kechirmoqda. PF-5847-son Farmon asosida bir qator OTMlarda ingliz tilida ta'lim berish dasturlari joriy etilgan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va boshqa yetakchi OTMlarda ingliz tilida ta'lim guruhlarini tashkil etilgan [2].

Biroq, mavjud holatni tahlil qilish quyidagi muammolarni aniqlash imkonini berdi.

*Birinchi*dan, EMI o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini baholashning yaxlit tizimi mavjud emas. Hozirgi paytda o'qituvchilarga qo'yiladigan asosiy talab - IELTS/TOEFL natijasi bo'lib, bu faqat til bilimi darajasini ko'rsatadi, lekin ingliz tilida o'qitish qobiliyatini to'liq aks ettirmaydi.

*Ikkinchi*dan, EMI o'qituvchilarini tayyorlash va malakasini oshirishning maxsus dasturlari yetarli darajada rivojlanmagan.

*Uchinchi*dan, baholash ko'pincha bir yo'nalishli bo'lib, talabalar fikri yoki hamkasblar kuzatuv kabi ko'p qirrali baholash usullari keng qo'llanilmaydi [16].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajribalar tahlili bir qator muhim xulosalarni beradi.

*Birinchi*dan, barcha o'rganilgan universitetlarda EMI o'qituvchilarini baholash tizimi faqat til bilimi darajasini tekshirish bilan cheklanmaydi, balki u pedagogik mahorat, predmet bilimi va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini ham qamrab oladi. Bu holat O'zbekistondagi hozirgi amaliyotdan tubdan farq qiladi, chunki mamlakatimizda asosan faqat til sertifikatlari (IELTS/TOEFL) talab etiladi.

*Ikkinchi*dan, xalqaro universitetlarda baholash bir martalik jarayon emas, balki uzluksiz monitoring tizimi sifatida tashkil etilgan. Helsinki va Singapur tajribalari ko'rsatadiki, yillik baholash va individual rivojlanish rejalarini birlashtirish o'qituvchining doimiy o'sishini ta'minlaydi. O'zbekistonda esa bunday uzluksiz monitoring tizimi hali shakllanmagan.

*Uchinchi*dan, baholash natijalarining kasbiy rivojlantirish dasturlari bilan uzviy bog'liqligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Barselona va Delft universitetlarining tajribasi shuni ko'rsatadiki, baholash faqat nazorat vositasi emas, balki o'qituvchining kasbiy o'sishini yo'naltiruvchi mexanizm bo'lishi kerak.

Xalqaro tajribalar va O'zbekiston sharoitini hisobga olib, quyidagi integratsiyalashgan model taklif etiladi:

2-jadval: O'zbekiston oliy ta'limi uchun taklif etiladigan EMI kompetentlik baholash modeli

Kompetentlik sohasi	Baholash mezoni	Baholash usuli	Xalqaro asos
Til kompetentsiyasi	CEFR C1+ daraja; akademik ingliz tili; o'qitish tili ko'nikmasi	Standart test + akademik o'qitish tili testi	TU Delft, Helsinki modeli
Pedagogik kompetentsiya	EMI metodikasi; interaktiv usullar; talabalarni jalb qilish	Sinf kuzatuv; microteaching; portfolio	Barselona, SNU modeli
Predmet bilimi	Fan bo'yicha chuqur bilim; ingliz tilidagi ilmiy adabiyot bilan ishlash	Ilmiy nashrlar tahlili; ekspert baholash	Helsinki modeli
Madaniyatlararo kompetentsiya	Xalqaro talabalar bilan ishlash; madaniy sezgirlik	Talabalar fikri; 360° baholash	NUS modeli
Kasbiy rivojlanish	Uzluksiz o'qish; refleksiya; innovatsion usullar	Individual rivojlanish rejasi; yillik monitoring	Helsinki, NUS modeli



Taklif etilayotgan model o'rganilgan xalqaro tajribalarning eng samarali elementlarini birlashtiradi. Helsinki universitetining integratsiyalashgan baholash yondashuvi, Barselonaning bosqichli sertifikatliya tizimi, TU Delftning akademik til tekshiruvi, Singapurning ko'p qirrali baholash mexanizmi va Seulning bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi modelning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Model joriy etishda Seul milliy universitetining bosqichma-bosqich yondashuvini qo'llash maqsadga muvofiq: dastlab magistratura dasturlarida sinab ko'rish, so'ngra esa muaffaqiyatli natijalarga asoslanib bakalavriat dasturlariga kengaytirish. Bunday yondashuv tizimning barqarorligini va o'qituvchilarning yangiliklarni qabul qilishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalaridan quyidagi asosiy xulosalar kelib chiqadi:

Birinchidan, xalqaro universitetlarning EMI o'qituvchilarini baholash tajribalari shuni ko'rsatadiki, samarali baholash tizimi faqat til bilimini tekshirish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik mahorat, predmet bilimi, madaniyatlararo muloqot ko'nikmasi va kasbiy rivojlanish qobiliyatini ham qamrab oladi.

Ikkinchidan, O'zbekiston oliy ta'limida EMI amaliyoti jadal rivojlanayotgan bo'lsa-da, o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholashning yaxlit, ilmiy asoslangan tizimi hali shakllanmagan. Mavjud yondashuv asosan til sertifikatlari bilan cheklanib, pedagogik va predmet kompetentsiyalarini yetarli darajada qamrab olmaydi.

Uchinchidan, xalqaro tajribalar asosida taklif etilgan integratsiyalashgan model O'zbekiston oliy ta'limida EMI sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Model beshta asosiy kompetentlik sohasini - til, pedagogika, predmet bilimi, madaniyatlararo muloqot va kasbiy rivojlanish - o'z ichiga oladi va har bir soha bo'yicha aniq baholash mezonlari va usullarini taklif etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dearden J. English as a Medium of Instruction – a Growing Global Phenomenon. – British Council, 2014. – P. 1–34.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. 2019-yil 8-oktabr.
3. Richards J.C. Curriculum Approaches in Language Teaching: Forward, Central, and Backward Design // RELC Journal. – 2013. – Vol. 44(1). – P. 5–33.
4. Freeman D. Educating Second Language Teachers. – Oxford: Oxford University Press, 2016. – P. 1–256.
5. Macaro E., Curle S., Pun J., An J., Dearden J. A systematic review of English medium instruction in higher education // Language Teaching. – 2018. – Vol. 51(1). – P. 36–76.
6. Macaro E. English Medium Instruction. – Oxford: Oxford University Press, 2018. – P. 1–345.
7. Ball D.L., Thames M.H., Phelps G. Content knowledge for teaching: What makes it special? // Journal of Teacher Education. – 2008. – Vol. 59(5). – P. 389–407.
8. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2012. – B. 1–432.
9. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 2009. – B. 1–208.
10. Hoshimov O., Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi. – T.: Sharq, 2003. – B. 1–256.
11. University of Helsinki. Language Policy and Guidelines for Teaching in English. Helsinki, 2020.
12. Universitat Autònoma de Barcelona. EMI Teacher Development Programme: CLIL-based Approach. Barcelona, 2019.
13. TU Delft. University Teaching Qualification (UTQ) Framework: EMI Module. Delft, 2021.
14. National University of Singapore. Teaching Academy: Continuous Professional Development Guidelines. Singapore, 2022.
15. Seoul National University. English Medium Instruction Policy and Implementation Report. Seoul, 2020.
16. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarida ta'lim berish to'g'risidagi hisobot. – T., 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.